Shu bilan birga, avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar o'rtasida global raqobatning kuchayishi brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Bozor sharoitida iste'molchilar talabi va xulq-atvorining tez o'zgarib borayotgani sababli, korxonalar marketing strategiyalarini muntazam ravishda yangilab borishi zarur.

Raqobat muhitining kuchayishi avtomobil sanoati korxonalarini strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga undamoqda. Ayniqsa, brend strategiyasi kompaniyaning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash, iste'molchilar ishonchini oshirish hamda korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Brend strategiyasi orqali korxonalar o'z mahsulotlarini raqobatchilardan farqlash, brend identifikatsiyasini shakllantirish hamda iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi [3]. Shu bois zamonaviy marketing nazariyasida brend strategiyasi korxonaning strategik boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida qaraladi.

Raqobat muhitida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlari turli iqtisodiy va marketing omillari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu mexanizmlarga marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifatini oshirish, servis xizmatlarini takomillashtirish hamda iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish kiradi. Mazkur omillar avtomobil kompaniyalarining marketing strategiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynab, brend kapitalining oshishi hamda korxonalarining bozordagi raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Avtomobil sanoatida brend strategiyasining asosiy komponentlari¹

№	Komponentlar	Mazmuni	Raqobatbardoshlikka ta'siri
1	Brend identifikatsiyasi	Logotip, nom va vizual elementlar tizimi	Korxonani bozorda ajratib ko'rsatadi
2	Brend qadriyati (brand equity)	Mijoz ongidagi qiymat va ishonch darajasi	Mijoz sodiqligini oshiradi
3	Pozitsiyalash strategiyasi	Maqsadli segmentga mos joylashuv	Raqobatchilardan farqlanishni ta'minlaydi
4	Innovatsion imidj	Texnologik yangiliklar bilan bog'liqlik	Yuqori segmentni jalb qiladi
5	Kommunikatsiya siyosati	Reklama, PR va marketing kommunikatsiyalari	Bozor qamrovini kengaytiradi

Mazkur jadvalga ko'ra, brend strategiyasi bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan iborat bo'lib, ularning har biri korxonaning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, brend identifikatsiyasi korxonani bozorda ajratib ko'rsatish hamda uning vizual tan olinuvchanligini ta'minlaydi. Brend qadriyati (brand equity) esa iste'molchilar ongida shakllanadigan ishonch va qiymat orqali mijozlar sodiqligini mustahkamlaydi.

Shuningdek, pozitsiyalash strategiyasi maqsadli segmentni aniqlash va bozorda optimal joylashishni ta'minlab, korxonaga raqobatchilardan farqlanish imkonini yaratadi. Innovatsion imidj komponenti korxonaning texnologik rivojlanganligini ifodalab, ayniqsa yuqori daromadli (premium) segmentni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nihoyat, kommunikatsiya siyosati orqali brendning bozor bilan aloqasi mustahkamlanib, marketing faoliyatining samaradorligi oshadi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritganda, avtomobil sanoati korxonalarida kuchli brend shakllanishi va uzoq muddatli raqobat ustunligiga erishish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, avtomobil sanoatida innovatsion texnologiyalar hamda raqamli transformatsiya jarayonlari brend strategiyasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, elektromobillar, aqlli transport tizimlari, avtonom boshqaruv texnologiyalari hamda ekologik toza transport vositalari ishlab chiqarish

¹ Muallif ishlanmasi.



kompaniyalar brend imijining shakllanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmog'da. Bunday innovatsiyalar nafaqat mahsulotning texnik ustunligini ta'minlaydi, balki kompaniyaning brend qiymatini oshirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston avtomobil sanoati ham so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanib bormog'da. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda 429 mingdan ortiq avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lib, bu avtomobil sanoatining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi.

2025-yilga kelib esa ishlab chiqarish hajmi 457 mingdan ortiq yengil avtomobilga yetgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich avtomobil sanoati rivojlanishining barqaror tendensiyasini aks ettiradi [4].

Mamlakatda avtomobil sanoatini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda yangi brend strategiyalarini joriy etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan o'rganish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini o'rganish marketing nazariyasi, strategik menejment hamda brend boshqaruvi sohasida keng tadqiq etilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda brend strategiyasi korxonalarining bozordagi raqobat ustunligini shakllantirish, iste'molchilar bilan barqaror munosabatlarni rivojlantirish hamda mahsulotning bozor qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim strategik omil sifatida talqin etiladi.

Raqobat muhitining kuchayishi sharoitida kompaniyalar brend strategiyasini ishlab chiqish jarayonida marketing kommunikatsiyalari, innovatsion marketing vositalari, iste'molchilar xulq-atvori hamda brend identifikatsiyasi kabi omillarni kompleks tarzda hisobga olishi zarur.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda brend strategiyasini o'rganishda muhim hissa qo'shgan olimlardan biri D. Holt hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, brend nafaqat marketing vositasi, balki madaniy fenomen sifatida ham namoyon bo'ladi. D. Holt brendlarni iste'molchilar ongida shakllanadigan ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi [5]. Uning tadqiqotlariga ko'ra, kompaniyalar brend strategiyasini ishlab chiqishda iste'molchilar qadriyatlari hamda ijtimoiy tendensiyalarni chuqur tahlil qilishi lozim.

Brend boshqaruvi va marketing strategiyasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan yana bir muhim olim T. Ambler hisoblanadi. U marketing faoliyatining samaradorligini baholash hamda marketing investitsiyalarining natijadorligini o'rganish orqali brend strategiyasini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi [6]. Uning fikriga ko'ra, marketing strategiyasining muvaffaqiyati brend kapitalining shakllanishi hamda iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarning rivojlanishiga bog'liq.

Marketing va brend boshqaruvi sohasida muhim ilmiy qarashlar bildirgan olimlardan biri D. Jobber hisoblanadi. U marketing strategiyasini korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida izohlaydi [7]. Uning fikricha, kompaniyalar brend strategiyasini ishlab chiqishda bozor segmentatsiyasi, iste'molchilar ehtiyojlarini tahlil qilish hamda marketing kommunikatsiyalarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Zamonaviy branding konsepsiyasini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlardan yana biri A. Wheeler hisoblanadi. Uning tadqiqotlariga ko'ra, brend identifikatsiyasi kompaniyaning strategik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi [8]. A. Wheeler brend strategiyasining muvaffaqiyati kompaniya qadriyatlari, vizual identifikatsiya tizimi hamda marketing kommunikatsiyalarining o'zaro uyg'unligiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi.

MDH mamlakatlari olimlari ham marketing strategiyasi va brend boshqaruvi masalalarini o'rganishda muhim ilmiy natijalarga erishganlar. Jumladan, rus iqtisodchi olimi A. Romanov marketing strategiyasini korxonalar faoliyatining muhim boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etadi [9]. Uning fikriga ko'ra, marketing strategiyasini samarali tashkil etish korxonalarining bozordagi raqobatbardoshligini oshirish hamda brend imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Marketing kommunikatsiyalari va brend boshqaruvi sohasida tadqiqot olib borgan olimlardan yana biri V. Karpova hisoblanadi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, marketing kommunikatsiyalarini samarali tashkil etish korxonaning brend strategiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi [10]. Ayniqsa, reklama, PR hamda marketing kommunikatsiyalari brend imijini shakllantirish va iste'molchilar sodiqligini oshirishga xizmat qiladi.

MDH mamlakatlarida marketing strategiyasi hamda innovatsion marketing konsepsiyalarini o'rganishda muhim ilmiy natijalarga erishganlar. Jumladan, rus iqtisodchi olimi E. Golubkov hisoblanadi. U marketing strategiyasini korxonaning bozor muhitiga moslashuvini ta'minlovchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida izohlaydi [11]. Uning fikriga ko'ra, zamonaviy korxonalar marketing faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishi zarur.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Q. Abdullayev marketing boshqaruvi hamda strategik marketing masalalarini o'rganib, marketing strategiyasining samarali tashkil etilishi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda



muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [12]. Uning fikricha, marketing strategiyasini ishlab chiqishda iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda bozor muhitini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlari marketing strategiyasi, brend identifikatsiyasi, marketing kommunikatsiyalari hamda iste'molchilar xulq-atvori bilan chambarchas bog'liqdir. Xorijiy hamda MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy qarashlari shuni tasdiqlaydiki, brend strategiyasini samarali boshqarish korxonalarining bozordagi raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash hamda ularning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash maqsadida kompleks ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi.

Jumladan, tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirishda iqtisodiy adabiyotlar, xalqaro ilmiy maqolalar hamda avtomobil sanoatida brend boshqaruvi bo'yicha ilg'or konsepsiyalarni tahlil qilish orqali tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, deduksiya va induksiya usullari qo'llanildi.

Amaliy bosqichda esa avtomobil sanoati korxonalarining brend strategiyasini shakllantirish jarayonlari statistik va empirik ma'lumotlar asosida o'rganilib, iqtisodiy-statistik tahlil, korrelyatsion tahlil hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy avtomobil bozorida raqobatning kuchayishi kompaniyalarni marketing faoliyatini takomillashtirish hamda brend strategiyalarini yanada samarali tashkil etishga undamoqda.

Avtomobil sanoati global iqtisodiyotning eng raqobatbardosh tarmoqlaridan biri bo'lib, unda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar nafaqat texnologik innovatsiyalar, balki brend strategiyasi orqali ham bozorda ustunlikka erishishga intilmoqda. Shu bois avtomobil korxonalarini o'z mahsulotlarini raqobatchilardan farqlash, iste'molchilar ishonchini oshirish hamda brend imijini mustahkamlashga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahon avtomobil bozorining rivojlanish tendensiyalari brend strategiyasining ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Xalqaro avtomobil ishlab chiqaruvchilar tashkiloti (OICA) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha 93 milliondan ortiq avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 94 millionga yaqin transport vositasini tashkil etgan [13]. Bu esa avtomobil sanoatida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatning yanada kuchayib borayotganini anglatadi.

Bunday sharoitda kompaniyalar uchun brend strategiyasini rivojlantirish bozorda barqaror pozitsiyani egallash hamda iste'molchilar e'tiborini jalb etishda muhim omil hisoblanadi.

Avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirish jarayonida bir nechta muhim mexanizmlar shakllangan. Birinchi navbatda, marketing kommunikatsiyalari mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy marketing strategiyalarida reklama, PR faoliyati, raqamli marketing vositalari hamda brend kommunikatsiyalari orqali kompaniyalar o'z mahsulotlari haqida keng auditoriyaga ma'lumot yetkazadi. Marketing kommunikatsiyalarining samarali tashkil etilishi brendning tanilish darajasini oshiradi hamda iste'molchilar ongida ijobiy brend imijini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim mexanizm — innovatsion rivojlanish mexanizmi hisoblanadi. So'nggi yillarda avtomobil sanoatida elektromobillar, gibrid transport vositalari, avtonom boshqaruv tizimlari hamda aqlli transport texnologiyalari keng joriy etilmoqda [14]. Xususan, Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha 17 milliondan ortiq elektromobil sotilgan bo'lib, bu avtomobil bozorida muhim o'zgarishlarni aks ettiradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish kompaniyalarining brend imijini mustahkamlash hamda ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi mexanizm — iste'molchiga yo'naltirilgan marketing strategiyasi hisoblanadi. Zamonaviy avtomobil kompaniyalari marketing faoliyatini iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda ularning xulq-atvorini tahlil qilish asosida tashkil etmoqda. Iste'molchilarga qulay servis xizmatlarini ko'rsatish, sotuvdan keyingi xizmatlarni takomillashtirish hamda mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish brend strategiyasining muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv brend sodiqligini oshirish hamda kompaniyaning bozordagi barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

To'rtinchi mexanizm — brendni pozitsiyalash strategiyasi hisoblanadi. Avtomobil kompaniyalari o'z brendlarini bozorda aniq segmentlarga yo'naltirish orqali raqobat ustunligini shakllantiradi. Masalan, ayrim kompaniyalar



premium segmentga yo'naltirilgan brend strategiyasini amalga oshirsa, boshqalari ommaviy iste'mol segmentiga mo'ljallangan marketing strategiyalarini qo'llaydi. Bunday strategik yondashuv kompaniyalarga o'z brendlarini bozorda samarali pozitsiyalash hamda maqsadli auditoriyani shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, avtomobil sanoatida brend strategiyasini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish ham muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn reklama platformalari hamda marketing analitikasi vositalari kompaniyalarga marketing strategiyalarini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, avtomobil xaridorlarining katta qismi avtomobil sotib olishdan oldin internet orqali mahsulot haqida ma'lumot izlaydi [15]. Shu sababli kompaniyalar raqamli marketing vositalaridan keng foydalanib, iste'molchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatishga intilmoqda.

O'zbekiston avtomobil sanoati ham so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda 420 mingdan ortiq avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 430 mingdan ortiq transport vositasini tashkil etgan. Shu bilan birga, mamlakat avtomobil bozorida yangi avtomobillar savdosi ham ortib bormoqda.

So'nggi yillarda avtomobil sanoatini modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon avtomobil sanoati korxonalarida marketing strategiyalarini takomillashtirish hamda milliy avtomobil brendlarining raqobatbardoshligini oshirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat avtomobil sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy avtomobil sanoatida raqobatning kuchayishi korxonalaridan marketing boshqaruvi tizimini takomillashtirishni hamda brend strategiyasini strategik rivojlanishning muhim elementi sifatida ko'rib chiqishni talab etadi.

Avtomobil kompaniyalari uchun brend strategiyasi nafaqat mahsulotni bozorda farqlash vositasi, balki iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish, brend kapitalini oshirish hamda bozorda barqaror pozitsiyani egallashga xizmat qiluvchi muhim strategik instrument hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, avtomobil sanoatida brend strategiyasining samaradorligi marketing kommunikatsiyalarining rivojlanganligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi, iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda servis xizmatlarining sifatiga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, kompaniyalar tomonidan brendni pozitsiyalash strategiyasining to'g'ri tanlanishi ham korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bozor segmentatsiyasi asosida ishlab chiqilgan brend strategiyalari kompaniyalarga maqsadli auditoriyani aniqlash hamda marketing faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, avtomobil sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish brend strategiyasini rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Elektromobillar, ekologik transport vositalari hamda aqlli transport tizimlari kabi innovatsiyalar kompaniyalarning texnologik ustunligini ta'minlab, brend imijining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, marketing kommunikatsiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanish, jumladan, raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish ham brend strategiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib, avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchiidan, avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini ishlab chiqish jarayonini marketing boshqaruvi tizimi bilan integratsiya qilish zarur. Marketing strategiyasining korxonada rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashuvi kompaniyaning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy reklama va PR vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing kommunikatsiyalarining samarali tashkil etilishi brendning tanilish darajasini oshiradi hamda iste'molchilar ongida ijobiy brend imijini shakllantiradi.

Uchinchiidan, avtomobil sanoatida innovatsion marketing strategiyalarini joriy etish lozim. Innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish kompaniyalarga yangi bozor segmentlarini egallash hamda marketing faoliyatining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

To'rtinchiidan, iste'molchilar ehtiyojlari va xulq-atvorini chuqur o'rganishga asoslangan marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bozor tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan marketing strategiyalari brend strategiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



Beshinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekiston avtomobil sanoatida milliy avtomobil brendlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu jarayon marketing kommunikatsiyalarini takomillashtirish, servis xizmatlarini rivojlantirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Umuman olganda, raqobat muhitida avtomobil sanoati korxonalarida brend strategiyasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish korxonalarning marketing faoliyatini rivojlantirish hamda ularning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar marketing strategiyalarini chuqur tahlil qilish, innovatsion marketing texnologiyalarini joriy etish hamda avtomobil sanoatida brend boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hollensen, S. Marketing Management: A Relationship Approach. 3rd ed. Pearson Education Limited, 2015. – 824 p.
2. Kapferer, J. The New Strategic Brand Management: Advanced Insights and Strategic Thinking. 5th ed. London: Kogan Page, 2012. – 512 p.
3. European Automobile Manufacturers Association (ACEA). Economic and Market Report: Automotive Industry Trends. Brussels, 2024. – 110 p.
4. UzAuto Motors. Financial Statements UAM 1H-2025. Available at: <https://uzautomotors.com/documents/financial-statements-uam-1h-2025-with-signature-and-stamp.pdf>
5. Holt, D. How Brands Become Icons: The Principles of Cultural Branding. Boston: Harvard Business School Press, 2004. – 256 p.
6. Ambler, T. Marketing and the Bottom Line: The Marketing Metrics to Pump Up Cash Flow. 2nd ed. London: Financial Times Prentice Hall, 2003. – 336 p.
7. Jobber, D., Ellis-Chadwick, F. Principles and Practice of Marketing. 8th ed. London: McGraw-Hill Education, 2016. – 896 p.
8. Wheeler, A. Designing Brand Identity: An Essential Guide for the Whole Branding Team. 5th ed. Hoboken: John Wiley & Sons, 2017. – 352 p.
9. Романов А., Корлюгов Ю. Маркетинг. Москва: Банки и биржи, ЮНИТИ, 2012. – 560 с.
10. Карпова В. Маркетинговые коммуникации. Москва: Юрайт, 2015. – 304 с.
11. Голубков Е. Маркетинговые исследования: теория, методология и практика. Москва: Финпресс, 2010. – 496 с.
12. Abdullayev, Q. Marketing. Toshkent: Fan nashriyoti, 2016. – 356 b.
13. World Bank. Global Economic Prospects. Washington, DC: World Bank Publications, 2024. – 256 p.
14. Черенков В. Международный маркетинг. Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 384 с.
15. McKinsey & Company. The Future of Mobility: Transforming the Automotive Industry. McKinsey Global Institute Report, 2023. – 150 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>